

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No2
MAXSUS SON

2026

MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO‘PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 96 sahifa,
mart, 2026-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLİYATI SAMARADORLIGINING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI	8
<i>Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich</i>	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TAHLILI.....	12
<i>Go'zal Samadova Solik qizi, Husan Normurodov</i>	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	17
<i>Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich, Aytmuratova Ulbike</i>	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SEKTORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	21
<i>Abdusalilov S.A., Normurodov X.E.</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	27
<i>Абдужаидов Шохжахон Шухратович, Захидов Шухрат Шокирович, Насиров Дилшод Фархадович</i>	
СТЕЙБЛКОИНЫ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО ПОСРЕДНИЧЕСТВА	31
<i>Бахтиярова А.Б., Алиева С.С.</i>	
TASHKILOT AXBOROT TIZIMLARINI KVANT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHDA POST-KVANT KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNI QO'LLASH.....	38
<i>G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi, Tursunova Sadoqat Abdusalom qizi</i>	
CHORVACHILIKDA QIYMAT ZANJIRI: BARQARORLIK VA DAROMAD	44
<i>Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahmatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek</i>	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI	50
<i>Sarsengalieva Albina Askar Qizi, Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich</i>	
STATISTIK TAHLILDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH.....	56
<i>Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi, Daminova Barno Esanovna</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTINING YASHIL RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	62
<i>Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi, Normurodov X.E.</i>	
O'ZBEKISTON TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	66
<i>Abdurazakova Farangis Dilshod qizi, Normurodov X.E.</i>	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	71
<i>Насиров Дилшод Фархадович, Абилова Мухлиса, Насимова Рухангиз</i>	
THE ROLE OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN	75
<i>Amanova Durdona Zoir qizi, Shodiboyeva Dilzoda Farhodjon qizi</i>	
INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	80
<i>Yarboeva Farida Ulug'bekovna, Yoqubova Zilola Tura qizi</i>	
QURILISH YUKLARINI TASHISH JARAYONIDA LOGISTIKA MASALALARI.....	86
<i>Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	90
<i>Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI MIKROMOLIYALASHTIRISH ORQALI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI	95
<i>Tojiyev Javlonbek Rustamovich, Yuldashev Sobirjon Xaknazarovich, Abdullayev Sunnat Nurullayevich</i>	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI MIKROMOLIYALASHTIRISH ORQALI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Tojiyev Javlonbek Rustamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0003-4678-2423

Yuldashev Sobirjon Xaknazarovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktab
2-kurs magistranti

Abdullayev Sunnat Nurullayevich

Sarbo'n universiteti
1-kurs DJB100-25-guruh talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari orqali kichik biznes subyektlarining bozorga kirishi hamda xaridorlar bilan bevosita aloqalar o'rnatish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayoni kichik biznesni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda ayrim muhim vazifalarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, texnologik infratuzilmani takomillashtirish, raqamli savodxonlikni oshirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish bilan bog'liq asosiy yo'nalishlar tahlil qilinib, ularni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, moliyaviy resurslar, texnologik infratuzilma, axborot texnologiyalari, raqamli transformatsiya.

Abstract: In modern conditions, digital technologies are becoming an integral part of the economic system. In particular, information technologies significantly expand the opportunities for small businesses to enter markets and establish direct communication with customers. At the same time, digital transformation processes create new opportunities for the development of small businesses while also highlighting several important areas for improvement. In particular, enhancing technological infrastructure, improving digital literacy, developing qualified human resources, and ensuring efficient use of financial resources are of great importance. This article analyzes the key aspects of small business development in the digital economy and provides scientifically grounded recommendations for further improvement.

Keywords: small business, financial resources, technological infrastructure, information technologies, digital transformation.

Аннотация: В современных условиях цифровые технологии становятся неотъемлемой частью экономической системы. Особенно благодаря информационным технологиям расширяются возможности выхода субъектов малого бизнеса на рынок и установления прямых связей с потребителями. Вместе с тем процессы цифровой трансформации открывают новые перспективы развития малого бизнеса и одновременно формируют ряд актуальных задач. В частности, важное значение приобретают совершенствование технологической инфраструктуры, повышение цифровой грамотности, подготовка квалифицированных кадров и эффективное использование финансовых ресурсов. В данной статье проанализированы ключевые направления развития малого бизнеса в условиях цифровой экономики, а также разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по их дальнейшему совершенствованию.

Ключевые слова: малый бизнес, финансовые ресурсы, технологическая инфраструктура, информационные технологии, цифровая трансформация.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar boshqa sohalar bilan bir qatorda iqtisodiy tizimga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, uning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu bilan birga, ular kichik biznes faoliyatini ham tubdan o'zgartirmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida biznes yuritish shakllari takomillashib, yangi imkoniyatlar kengaymoqda.

Ayniqsa, kichik biznes vakillari uchun raqamli transformatsiya bozorga kirish, mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatish hamda xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun ayrim muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur. Jumladan, raqamli savodxonlikni oshirish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kiberxavfsizlikni mustahkamlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur omillarni izchil rivojlantirish kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan izlanishlar kichik biznesni raqamlashtirishning nazariy asoslari, amaliy jihatlari hamda rivojlanish istiqbollari yoritib beradi.

Yunusov A.A. (2025) o'z tadqiqotida raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib, bunda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, elektron tijoratni kengaytirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Muallif kichik biznes subyektlari uchun raqamli platformalardan foydalanish samaradorlikni oshirishini asoslab beradi [1].

G'ofurov D. (2025) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish istiqbollari tahlil qilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim yo'nalishlar sifatida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli savodxonlik darajasini oshirish va infratuzilmani takomillashtirish zarurligini qayd etadi [2].

Akbarov A. (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekistonda kichik biznesning rivojlanish jarayonlari tahlil qilinib, raqamli transformatsiya sharoitida davlat qo'llab-quvvatlovi muhim omil sifatida baholanadi. Muallif kichik biznesni rivojlantirishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini alohida ta'kidlaydi [3].

Ismoilov D. (2025) tadqiqotida kichik va o'rta biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasi asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Muallif raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda boshqaruv tizimini optimallashtirish mumkinligini asoslaydi [4].

Pazilidinov M. (2025) kichik biznes faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlab, ayniqsa sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va katta ma'lumotlar (Big Data)dan foydalanish istiqbollari yuqori ekanligini ta'kidlaydi [5].

Rajabov S. (2025) raqamli texnologiyalar taraqqiyotining iqtisodiyotga umumiy ta'sirini o'rganib, bu jarayon iqtisodiy o'sishni jadallashtirish bilan birga yangi rivojlanish imkoniyatlarini ham shakllantirishini ko'rsatadi. Bu esa kichik biznesdan moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvni talab etadi [6].

Xorijiy tadqiqotchilardan Nosratabadi S. va boshqalar (2019) barqaror biznes modellari orqali kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Ular raqamli iqtisodiyot sharoitida moslashuvchan va barqaror strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi [7].

Soni N. (2019) sun'iy intellektning biznesga ta'sirini o'rganib, ushbu texnologiyalar kichik biznes samaradorligini oshirish, mijozlar bilan ishlashni takomillashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qilishini asoslaydi [8].

Grabova O. va boshqalar (2011) biznes intellekt tizimlarining kichik va o'rta biznesdagi rolini tahlil qilib, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, infratuzilmani yanada rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kiberxavfsizlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu yo'nalishlarda kompleks yondashuvni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg'un holda qo'llanildi. Jumladan, tahlil va sintez, taqqoslash, statistik tahlil hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Empirik tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa rasmiy statistik ma'lumotlar asos sifatida qabul qilindi. Shuningdek, SWOT-tahlil yordamida kichik biznes subyektlarining raqamli muhitdagi holati kompleks baholandi.

Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar chiqarilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda aniqlandi hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri kompleks baholandi. Empirik va nazariy tahlillar natijasida aniqlanishicha, axborot texnologiyalarini joriy etish bilan kichik biznesning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Jumladan, raqamli platformalardan faol foydalangan kichik biznes subyektlarida mijozlar bilan o'zaro aloqalarning yaxshilanishi, operatsion xarajatlarning qisqarishi va savdo hajmining ortishi kuzatildi.

Ekonometrik model ($\ln Y = \beta_0 + \beta_1 \ln X_1 + \beta_2 \ln X_2 + \beta_3 \ln X_3 + \beta_4 \ln X_4 + \varepsilon$) asosida olingan natijalar modelga kiritilgan barcha omillar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini hamda ularning kichik biznes samaradorligiga ta'siri turli darajada namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Xususan, raqamli infratuzilma eng yuqori ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida aniqlandi. Internet tezligi, axborot texnologiyalariga kirish imkoniyati va texnik jihozlanganlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda kichik biznes subyektlarining faoliyati yanada samarali kechishi kuzatildi. Ushbu holat infratuzilma rivojlanishi biznes jarayonlarini takomillashtiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi.


Bundan tashqari, raqamli savodxonlik darajasi ham kichik biznes samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadbirkorlarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari yuqori bo'lgan sharoitda biznes jarayonlari samarali tashkil etilib, boshqaruv qarorlari tez va aniq qabul qilinadi, natijada ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligi ortadi. Shuningdek, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari ham kichik biznesni raqamlashtirish jarayonida muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Yetarli moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ega bo'lgan subyektlar zamonaviy texnologiyalarni tezroq joriy etish va innovatsion faoliyatni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Shu bilan birga, innovatsion g'oyalarni joriy etish darajasi kichik biznesning uzoq muddatli rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida baholandi. Sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar hamda elektron tijorat platformalaridan foydalanish biznes jarayonlarini takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlar bilan individual ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. SWOT-tahlil natijalari kichik biznesning raqamli muhitdagi strategik holatini quyidagicha ifodalash imkonini berdi: kuchli tomonlar sifatida tezkor qaror qabul qilish, innovatsiyaga ochiqlik va moslashuvchanlik; rivojlantirish zarur bo'lgan yo'nalishlar sifatida raqamli savodxonlikni oshirish va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; imkoniyatlar sifatida global platformalarda faoliyat yuritish, mijozlar bazasini kengaytirish va yangi bozor segmentlariga chiqish; e'tibor talab qiluvchi jihatlar sifatida esa kiberxavfsizlikni mustahkamlash va raqobat muhitiga moslashish qayd etildi.

Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirishda texnologik infratuzilmani yanada takomillashtirish, raqamli savodxonlikni oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kiberxavfsizlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Shu asosda, aniqlangan yo'nalishlar bo'yicha samarali yechimlar ishlab chiqish zarurligi asoslandi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining o'ziga xos jihatlari sifatida iqtisodiy mustaqillik, erkinlik va shaxsiy mas'uliyatning yuqori darajada namoyon bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va o'zgaruvchan bozor talablariga tez moslashish qobiliyati, shuningdek, faoliyatning barcha yo'nalishlarida iste'molchi ehtiyojlarini qondirishga ustuvor e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu subyektlar innovatsion jarayonlarni faol qo'llash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish orqali iqtisodiy tizimda muhim o'rin egallaydi.

Tadbirkorlik subyektlarini mikromoliyalashtirish kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda mavjud jarayonlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, tadqiqot natijalari asosida mikromoliyalashtirish tizimini rivojlantirishga qaratilgan asosiy yo'nalishlarni aniqlash imkoniyati yaratildi (1.1-rasm):



1.1-rasm. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini mikromoliyalashtirish bilan bog'liq muammolar tasnifi va tavsifi¹

Mazkur jarayon internet tezligini oshirish, raqamli platformalarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda IT xizmatlarni ommalashtirish orqali samarali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikni oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada tadbirkorlar uchun treninglar, onlayn kurslar va amaliy seminarlarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.


Shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, imtiyozli kreditlar, grantlar va investitsiya dasturlarini kengaytirish zarur. Shu bilan bir qatorda, kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun zamonaviy himoya tizimlarini joriy etish hamda tadbirkorlarning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik subyektlarini tijorat banklari va mikromoliyaviy tashkilotlar tomonidan mikromoliyalashtirish jarayonida muammoli kreditlar masalasi ham e'tibor talab qiluvchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga mamlakat tijorat banklaridagi muammoli kreditlar (NPL — Non-performing loan) hajmi 21 trln 185 mlrd so'mga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,1 foizga oshgan.

Ta'kidlash joizki, muammoli kreditlar tarkibiga muddati 90 kundan ortiq kechiktirilgan, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz deb tasniflangan kreditlar kiradi. 2025-yil 1-iyun holatiga tijorat banklari kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlarning ulushi 4,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, mikromoliyaviy tashkilotlarda ushbu ko'rsatkich 4,0 foiz darajasida qayd etilgan.

Mazkur ko'rsatkichlar mikromoliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish, kredit risklarini samarali boshqarish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha izchil choralarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi (1.2-rasm).

1 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1.2-rasm. Banklar va mikromoliyaviy tashkilotlarda muammoli kreditlar hajmi va salmog'i²

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu muammolarni bartaraf etish kichik biznesning samaradorligi va raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish ko'p jihatdan raqamli infratuzilma darajasi, raqamli savodxonlik, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Tahlillar natijasida ushbu omillarning barchasi kichik biznes samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shu bilan birga, ustuvor omillar sifatida raqamli infratuzilma va raqamli savodxonlik alohida ajralib turishi kuzatildi. Bu esa kichik biznes subyektlarining zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishi hamda bozordagi raqobatbardoshligini oshirishda mazkur omillarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida kichik biznesni rivojlantirish jarayonida ayrim yo'nalishlarni yanada takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Xususan, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda kiberxavfsizlikni mustahkamlash barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim omillar sifatida baholandi.

Shu asosda kichik biznesni samarali rivojlantirish uchun kompleks yondashuvni amalga oshirish zarur bo'lib, bunda raqamli infratuzilmani rivojlantirish va unga investitsiyalarni oshirish, kichik biznes subyektlari uchun raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini kengaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda kiberxavfsizlik tizimlarini mustahkamlash ustuvor yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, internet tezligini oshirish orqali qulay biznes muhitini yaratish, treninglar va onlayn kurslar orqali tadbirkorlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, imtiyozli kreditlar, grantlar va investitsiya dasturlarini kengaytirish, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yunusov A. A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish yo'nalishlari // International Journal of Science and Technology. – 2025.
2. G'ofurov D. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish istiqbollari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025.
3. Ismoilov D. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasi asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash va takomillashtirish yo'llari // Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. – 2025.

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida 2025-yil 1-iyun holatiga ma'lumot - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki; Mikromoliya tashkilotlarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki).



4. Pazilidinov M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari // Innovations in Science and Technologies. – 2025.
5. Rajabov S. Raqamli texnologiyalar taraqqiyotining iqtisodiyotga ta'siri // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025.
6. Akbarov A. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash istiqbollari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025.
7. Nosratabadi S. va boshqalar. Sustainable Business Models: A Review. – 2019.
8. Soni N. Impact of Artificial Intelligence on Businesses. – 2019.
9. Grabova O. va boshqalar. Business Intelligence for Small and Medium-Sized Enterprises. – 2011.
10. Tojiyev J. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tijorat banklarining kredit siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – ISSN: 2582-4686; SJIF (2021–2024); ResearchBib IF: 9.948.
11. Tojiyev J. Yangi O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari // Muhandislik va iqtisodiyot jurnali. – 2025. – 132–137-betlar.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100